



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 10 2023 YIL 24 OKTABR

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING “TIBBIYOT XODIMLARI KUNI” MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hammamizga ma'lumki, har yili noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi mamlakatimizda “Tibbiyot xodimlari kuni” bayram sifatida keng nishonlanib kelinadi.

Shifokorlik kasbi – eng mashaqqatli va shu bilan birga sharaflı kasblardan biri hisoblanadi. Chunki, bizning mahoratimiz, malakamiz, mas'uliyatimiz insonlarning hayoti va taqdirida o'rin egallaydi. Jamiyatimizning barcha sohalari qatorida, mamlakatimizda tibbiyotning rivojlanishi, sifatli tibbiyot xizmatlaridan foydalanishlari, shifokorlarning bilimlari, ko'nikmalari, mahoratlarini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz barcha sohalardan ham tibbiyot sohasiga alohida e'tibor ko'rsatdik. Chunki bosh maqsadimiz – xalq salomatligini saqlash, sog'lig'ini yanada mustahkamlash”, deb ta'kidlagani so'zlarimizning isbotidir.

Bugun davlatimiz rahbari tomonidan tibbiyot sohasi vakillari oldiga butunlay yangi talab va vazifalar qo'yilgan. Zahmatli ammo sharaflı kasbingiz ortidan kelayotgan xalq olqishi va rahmati

sizlarni yuksaklarga chorlasin. Insonlarni davolash, sog'lig'ini yaxshilash, mustahkamlash yo'lidagi ishlaringizda ilmingiz yanada oshib, tafakkuringiz teranlashib boraversin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2023-yil “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim” yilida Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarda Siz hurmatli hamkasblarning mehnatlaringiz beqiyos. Mehnatdagi, ilmiy, ijodiy izlanish va o'quv jarayonidagi fidoyiligingizni hamisha yuksak qadrlaymiz. Bilimli, zukko professor-o'qituvchi va talabalarimizning izlanish, intilish va qo'lga kiritayotgan yutuqlaridan faxrlanamiz. Shifokor hamkasblar, ustoz va murabbiylar, aziz talabalar! Sizlarning barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor muborakbod etaman. Sizlarga uzoq umr, tani-sihatlik,



oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va xotirjamlik tilayman, ilmiy va ijodiy faoliyatingiz, o'qishlaringizda omad hamisha yor bo'lsin. Aziz va qadrdon hamkasblar, shifokorlar – barchangizga bayram muborak bo'lsin!

Alisher SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDAGI TUB O'ZGARISHLAR

Mamlakatimizda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qadr-qimmatini ulug'lashda sog'liqni saqlash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

El-yurt salomatligini asrash va mustahkamlash yo'lida fidokorona mehnat qiluvchi tibbiyot xodimlarini tayyorlash yurtimiz hukumatining doimiy

e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi respublikamizdagi eng nufuzli tibbiyot oliygohi bo'lib, yuz yildan ziyod vaqt


davomida tibbiyotning turli sohalarda sharaflı mehnatlarini amalga oshirayotgan malakali shifokorlarni tayyorlamoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasi Toshkent shahrida O'rta Osiyo universiteti negizida tibbiy fakultet sifatida o'z faoliyatini boshlab, o'sha davrlardan boshlab oliy malakali davolovchi shifokorlar, farmatsevtlar, gigiyena mutaxassislarini tayyorlagan.

(Davomi 2-betda)


Hikmat



Ona tili – bu millatning ruhidir.



Hikmat



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDAGI TUB O'ZGARISHLAR

(Boshi 1-betda)

Tibbiyot akademiyasi nafaqat respublikamiz, balki butun jahon tibbiyotiga yetuk mutaxassislar tayyorlab beradigan tibbiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. TTA kafedralarida 1000 ga yaqin o'qituvchilar faoliyat olib boradi, ulardan 190 tasi fan doktorlari, 600 dan ziyodi fan nomzodlari, akademiklar, xorijiy akademiyalarning faxrli a'zolari, fan arboblari, xizmat ko'rsatgan shifokor va ta'lim xodimlaridir.

Ushbu oliygo'da kelajakda tibbiyotning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatadigan talabalarining salohiyatini oshirish, ularda turli muhim ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu maqsadda barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan barcha asosiy islohotlar asosida turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdek yuksak maqsad yotadi. Buni Toshkent tibbiyot akademiyasi faoliyati misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Shu yilning sentabr oyida akademiyaning yangi rekonstruksiya qilingan bosh o'quv binosi foydalanishga topshirildi.

Foydalanishga topshirilgan yangi binoda 8 ta kafedra, 10 bo'lim, ma'muriyat joylashgan bo'lib, uch mingdan ortiq talaba tahsil olish imkoniyatiga ega. TTAning klinik kafedralari akademiyaning ko'p tarmoqli klinikasining davolash-tashxislash bo'limlarida joylashgan.

Binoda 148 ta o'quv auditoriyalari, 10 ta smart ma'ruza zallari, 60 nafar bolaga mo'ljallangan MTT, 500 nafardan ortiq talabaning mustaqil tayyorgarligi uchun mo'ljallangan zonalar, shuningdek, 520 o'rinli ovqatlanish joylari mavjud.

Binoning birinchi qavatida Simulyatsion markaz va 3 ta elektron mikroskopga ega ilmiy laboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda. Yaponiyaning eng zamonaviy laborator uskunalarini bilan jihozlangan simulyatsion markazda bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalari turli tibbiy holatlarni o'zida aks ettirgan jihozlarda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniga egadirlar. Bu markazdan ko'zda tutilgan maqsad shifokor mutaxassislarni o'qish jarayonida davolash amaliyotining zamonaviy aniq ko'nikmalarini egallab borishlarini ta'minlash va buning uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

Simulyatsion markaz turli klinik vaziyatlarni tahlil qiluvchi manekenlar va simulyatorlar bilan ta'minlangan bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam, reanimatsiya, jarrohlik, pediatriya, terapevtik mutaxassisliklar hamda an'anaviy tibbiyot kabi o'quv auditoriyalarni o'z tarkibiga olgan.

Binoning ikkinchi qavatida Raqamli tibbiyot markazi joylashgan. Bu yerda joylashgan zamonaviy Test markazida talabalar o'rtasida imtihon sinovlarini o'tkazish, mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun to'xtovsiz ishlovchi virtual kutubxona va kompyuter sinflari mavjud. Shu qavatda ajoyib tibbiyot tarix muzeyi mavjud bo'lib, istagan kishi O'zbekiston Respublikasi tibbiyotining tarixi, zamonaviy holati va istiqbollari bilan tanishib chiqishi mumkin.

Telemeditsina yoki masofaviy tibbiyotga bag'ishlangan bo'limda talabalarga distansion tibbiy xizmat tizimida ishlash, elektron poliklinika va stasionar bo'limda esa elektron tizim orqali bemorlarni ro'yxatga olish, maslahat berish, kundalik holidan xabar olish hamda tibbiy elektron karta to'ldirish tartibi o'rgatib boriladi.

Shuningdek, binoning yettinchi qavatida

Biotibbiyot texnologiyalari markazi tashkil etilib, tibbiy genetika, hujayra texnologiyalari, immunologiya, elektron mikroskopiya, farmakotoksikologiya, ekologik laboratoriya va ilmiy maktablar mavjud.

Ushbu qavatda joylashgan Texnopark va sakkizinchi qavatdagi raqamlashtirilgan Axborot resurs markazi ham talabalarining bilim olishi va o'z ustida izlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida yuqori malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash hamda sog'liqni saqlash tizimini izchil takomillashtirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Oliygo' rahbariyati o'quv jarayonida ilg'or ta'lim texnologik usullarini keng joriy etish natijasida ta'lim tizimiga innovatsion mazmun-mohiyat kiritishga muvaffaq bo'lmoqda. Respublikada oliy ma'lumotli tibbiyot kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda yetakchi muassasa sifatida respublikadagi barcha tibbiyot o'quv yurtlari, akademiya filiallari faoliyatini uslubiy nazorat qilib borish va takomillashtirish, shuningdek, tibbiyot, sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarzi targ'iboti yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasida tibbiyot sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan birga ularga vatanparvarlik, komil insoniylik his-tuyg'ularini yuksak darajada singdirib borish hamda o'z kasbini egallashdagi intilishlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham singdirib borish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

**M.BAZARBAYEV,
U.ABDUJABBOROVA**



TIBBIYOT AKADEMIYASI TALABALARI QASAMYOD QABUL QILDI

Shifokorlik – sharafli va ayni damda o'ta mas'uliyatli kasb. Bu zahmatli faoliyatga umrini baxshida etmoqchi bo'lgan yoshlar kelgusida nafaqat egnidagi oq libosi, balki qalbiga ham gard yuqtirmasliklari lozim.

Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-bosqichiga qabul qilingan yigit-qizlar ishtirokida «Talabalikka bag'ishlov – 2023» tadbiri bo'lib o'tdi.

Mingdan ziyod oppoq kiyimdagi yigit-qizlar ko'zida porlayotgan hayrat va havasdan qalbingiz taskin topadi. Ular quvonchiga beixtiyor sherik bo'lasiz. Orzulari ro'yobga chiqayotgan umidli yoshlarning o'z maqsadlari sari qo'ygan ilk ishonchli qadamlari katta va nufuzli ilmiy jamoa – Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p ming sonli professor va o'qituvchilari, magistr va bakalavrlari tomonidan olqishlanganida esa qalbingizni faxr va iftixor tuyg'usi qamrab oladi. Ha, bu yurt shunday odamlar yashaydi. Bir-birlariga hayrixoh, hamjihat. Bir bolaning quvonchini xuddi o'z farzandini singari qabul qila oladigan bag'rikenglar yurti bu.

Tadbirni TTA prorektori Shuhrat Boymuratov ochib berib, 1-kurs talabalarini yangi hayot boshlayotganlari bilan tabrikledi.

Inson salomatligi yo'lida bor ilmi, kuch va qudrati, salohiyati va hayotini bag'ishlashga tayyor shifokorlarning metin irodasi va jasorati e'tirof etildi. Tibbiyot ilmi ravnaqi yo'lidagi ilmiy ishlanmalari bilan yurtimiz sharafigi dunyo mamlakatlari ko'z o'ngida namoyon etayotgan iqtidorli talabalar tashabbusi olqishlandi.

Yangi O'zbekiston yoshlarining ilmu fan taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi, oliy ta'lim tizimidagi mutloq yangicha qarashlarga ega yoshlar to'g'risida so'z bordi. Bo'lajak shifokorlar tibbiyot ilmini egallashdan avval an'anaviy qasamyodni qabul qilar ekanlar, eng avvalo shu muqaddas Vatan oldidagi farzandlik burchiga sodiq qolajaklarini baralla bayon etdilar.

Shundan keyin barcha talabalar talabalik qasamyodini qabul qilishdi. Tibbiyot sohasida o'z faoliyatini yo'lga

qo'yishni istagan yoshlar uchun bu ilk qadam bo'ldi.

– Bu yil hayotimning eng baxtli lahzalaridan biri bo'ldi desam adashmayman, – deydi 1-davolash ishi fakulteti talabasi, «Doktor reportyor» klubi a'zosi Umidaxon Nazaraliyeva. – 2023-yili TTA talabasiga aylandim. Talabalik qasamyodi qabul qildim. Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-kursga tavsiya etilgan barcha talabalar jamlangan muhtasham binoda hamma ota-onasi, bobosi va buvisi bilan kelishdi. Hamma oq xalatda ular oppoq farishtalarga o'xshardi. Bunday baxt hammaga ham nasib etavermaydi. Qasamyodni qabul qilar ekanman, o'zgacha faxrlanish tuyg'usini sezdim. Bu faxr bilan bir qatorda menga yanada katta mas'uliyat yukladi. Marosim tugagach, 3 marta baland ovozda «Qasamyod qilaman» deganimizda Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalariga safiga qo'shilganimiz uchun barchamizning ko'zlarida yosh, qalblarida boshqacha g'urur paydo bo'ldi. TTA talabalariga safiga qo'shilish oson bo'lmagan, qancha ko'z yoshlari, qancha uyqusiz tunlar va mandat natijasini intiqlik bilan kutish, ammo bu kunlar bizning shirin xotiralarimiz bo'lib qoldi. Biz buni uddaladik va mehnatimiz evaziga shu ulug' joyda o'qiyotganimizdan, bizga omad kulib boqqanidan juda xursandmiz. Albatta, biz ham akademiyamiz tomonidan berilayotgan shart-sharoitlardan to'g'ri foydalangan holda ustozlarimizning ortidan izdosh bo'lib, kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lishga harakat qilamiz.

Tadbir so'nggida guruhlar tomonidan quvnoq, yorqin va esda qolarli dastur va talabalarning chiqishlari namoyish etildi.

TTA Matbuot xizmati



21 oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni**TIL – MILLAT G‘URURI**

Inson tafakkuri mahsuli hisoblanmish nutq bevosita yozma va og‘zaki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Til – millatning ma‘naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.

Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 oktabrda Davlat tili maqomi berildi. Bu tarixiy voqea mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz, millat hayotidagi unutilmas kundir. Bu kunni O‘zbek tili bayrami sifatida nishonlash milliy tilimizni, o‘zligimizni qadriini ulug‘lash til sharafiga berilgan e‘tirofdir.

Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi, til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizining har biridan 100.000 aholi foydalanadi. Mana shuning o‘ziyoq bu tillarning kelajagi qorong‘uligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 357 tilda atigi 50 nafar kishi so‘zlashar ekan. 46 tildan esa atigi bir kishining foydalanishi aytiladi. Ularning o‘limi bilan bu tillar ham yo‘qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so‘zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O‘zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Qachonki bolalar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘xtatar ekan, o‘sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi.

“Qaysi bir millatning ona tili o‘z hojatini o‘tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag‘lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko‘p uzoqlamay, insoniy

huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg‘izgina Vatanlaridan emas, balki butun borig‘i bilan tarix yuzidan yo‘qolishga majbur bo‘ladilar”. Buyuk alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘tgan kunlarda millatni o‘z tiliga bo‘lgan e‘tibordan so‘z yuritdi. Xo‘sh bugunchi! Ona tilimiz qay peshtaxtaning toqida, qay matbuotning ortida yoki uyali telefonlar poyidan bizga boqib o‘z tanazzulini namoyon etmayaptimi? Biz bugun xalq taqdiri bilan bog‘liq til taqdiriga qanday munosabatda bo‘lmoqdamiz? Kuntik SMSlar, lahja va shevaga boy matbuot bongi! Internetdagi “muloqot”! Bu barchamizning tanazzulimiz emasmi? Biz befarqlik qobig‘iga o‘ratsak til tannazuli bo‘lishi shubhasizdir.

Til har bir millat madaniyatining o‘zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an‘analarini saqlaydi. Millatni birdamligi, boy o‘tmishini bugun asrab, avaylagan til olib chiqadi. Ona tilimiz O‘zbek tili, ardoq va hurmatga loyiq deya o‘rganilib, asrlar osha o‘z e‘tibori va nufuzi bilan dunyo minbarlarida sadosi baralla jarang sochaversin.

Fotima IRSALIYEVA,
t.f.d., dotsent,

Nigora HAKIMOVA,
Toshkent tibbiyot

akademiyasi akademik litseyi

Yoshlar masalalari

ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha
direktor o‘rinbosari

Ona tili – shaxsiyatimiz asosini tashkil qiladi. Ona tilimiz bizni oilamiz, jamiyatimiz va madaniyatimiz bilan bog‘laydi. Bu bizga kim ekanligimiz va kelib chiqish tariximiz haqida bilishimizga yordam beradi.

ONA TILINING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Ona tilimiz bilan mustahkam aloqamiz bo‘lmasa, bizda ajdodlarimiz bilan aloqani yo‘qotish va tegishlilik hissini yo‘qotish xavfi bo‘lishi mumkin.

Qolaversa, ona tili kognitiv rivojlanishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘z ona tilini yaxshi biladigan bolalar maktabda yaxshi natijalarga erishadilar va ijtimoiy muammolarni ijobiy yechish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Chunki o‘z ona tilida fanlarni chuqur o‘rganish tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi, keyinchalik bu ta‘limning boshqa sohalarida ham qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, samarali muloqot qilish uchun ona tili muhim ahamiyatga ega. Ona tilini bilish oila, do‘stlar va hamkasblar bilan aniq va yaqindan muloqot qilish imkonini beradi. Ona tili, shuningdek, odamlarga o‘z fikrini to‘liq va mazmunli tarzda ifodalash imkonini beradi, bu ayniqsa kasbiy vaziyatlarda, jumladan, tibbiyot, siyosat va boshqa sohalar uchun muhimdir.

Biroq, ona tilining ahamiyatiga qaramay, u ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi yoki kam baholanadi. Ko‘pchilik o‘z ona tilini puxta egallamay turib, ikkinchi yoki uchinchi tilni o‘rganishga harakat qiladi. Bu nafaqat madaniy merosning unutilishiga, hatto xalqlarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi va ma‘naviy qashshoqlikka ham olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, ona tilining qadr-qimmatini yuqori baholashimiz va uni ulug‘lashimiz juda muhim. Ona tilini jamiyat orasida rivojlanishi uchun hukumatlar ona tillarini saqlash va o‘qitishni rag‘batlantiradigan dasturlarga sarmoya kiritishlari kerak. Maktablar o‘quvchilarga o‘z ona tilini mukammal o‘rganishi kerakligini targ‘ib etishlari lozim. Va har bir kishi o‘z ona tili bilan faxrlanishi va kundalik hayotida undan faxr bilan foydalanishda davom etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ona tili bizning shaxsiyatimiz, kognitiv rivojlanish va muloqot qobiliyatimizning ajralmas qismidir. Ona tili avloddan-avlodga mukammal tarzda o‘tib borishi va har yili til bayrami sifatida nishonlanishi kerak bo‘lgan qimmatbaho boylikdir. Ona tilining ahamiyatini anglab, biz kuchli hamjamiyatlarni qurishimiz va madaniy xilma-xillik va o‘zaro yaqinlikni rivojlantirishimiz mumkin.

Akmal ASLANOV,

“Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrası” dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi



SHIRIN SO'Z – JON OZIG'I

Shifokorlar bayramiga

Taqdirning taqozosi bilan ikkinchi farzandim Komronbek tug'ma nuqson bilan dunyoga keldi. Shifokorlar unga "Qovuq ekstrofiyasi, epispadianing total shakli. Total peshob tutolmaslik" tashxislarini qo'yishdi.

Bola tug'ilganida qovug'ining old devori ochiq, orqa devori esa qip-qizil bo'lib ko'rinib turardi. Ana shundan keyin bir necha yillik umrimiz turlituman davo maskanlari ostonasida, muomala madaniyati, bilimi, ko'nikmalari turlicha bo'lgan shifokorlar qabulida sarg'ayib o'tdi. Dastavval bir yashartligida Samarqand bolalar xirurgiya markazida, keyin 3 yoshida Toshkentdagi bir xususiy klinikada muvaffaqiyatsiz operatsiya qilindi. Har galgi operatsiyadan keyin tikilgan choqlar ochilib ketar, bolamning qovug'i yana qaytadan ochilib ketar, unga qo'shilib mening dardim ham yangilanib ketardi. Bir safar Samarqand mutaxassislari uning peshob naylarini ichagiga tikib qo'yish operatsiyasini taklif qilishdi, agar bu muolaja bajarilsa Komronbek bir umr orqa teshigidan peshob qilar ekan. Shifokorlar tan olib aytishiga qaraganda bu eng oxirgi chora bo'lib, operatsiya qilinganlar bir umrluk nogiron bo'lib, unchalik uzoq ham yashamas ekan. Otasi bilan maslahatlashib, bu operatsiyaga rozi bo'lmadik. Kunlar shunday umidsiz va xira o'taverdi. Bu orada bolam 4 yoshga kirib qo'ldi. Hamon peshobi tinimsiz ajralib atrof to'qimalarni qizartirar, mochevina hidi aniqib, tengdoshlariga qo'shilolmas, "Enajon, men ham boshqa bolalar kabi to'p tepamanmi?" degan savollaridan qon-qon yig'lardim.

Nihoyat, hidoyatga yetadigan kunimiz keldi, Allohning inoyati bilan oynayi jahonda "Ertalabki salom" ko'rsatuvida Yevropa tabiiy fanlar Akademiyasi akademigi Alijon Faqirovning sihat-salomatlik borasidagi bir ko'rsatuviga ko'zim tushib qoldi. Ko'rdim-u, bolamga faqat shu insongina yordam bera olishiga ishonchim. Uning ilmiy asoslangan, sodda va tushunarli suhbat, ochiq chehrasi meni o'ziga tortaverdi. Nihoyat, Komronbekni olib yo'lga tushdik, Toshkent tibbiyot akademiyasidan do'xtirni topdik. Qarangki, uning nomzodlik dissertatsiyasi aynan shu mavzuda bo'lib, bu borada o'ttizdan ortiq ixtirolar qilgan ekan!

U bizni baayni qarindoshlaridek iliq kutib oldi, bolamga o'zining kitoblaridan sovg'a qilib, bola tilida muomala qilib, go'dakkinamda va bizlarda tuzalishga ishonch hosil qildi. To'rt yillik tug'ma nogironlik o'z ishini qilgan, bolamda kamqonlik, peshobdan zaharlanish alomatlari paydo bo'lib ulgurgan ekan, shifokor erinmasdan, irganmasdan uni qariyb bir oycha operatsiyaga tayyorlab, operatsiyaga olib kirdi. U avvalgi muvaffaqiyatsiz operatsiyalardan qolgan chandiq va asoratlarni bartaraf qilib, bir bosqichning o'zidayoq ham qovuqni, ham olat butunligini tiklab berdi, to' jarrohlik jarohati bitgunicha o'n ikki kun boshida turdi. Bu davr ichida u bilan baayni

qondoshdek bo'lib qoldik, har kuni Mashrab, Abdulla Oripov she'rlaridan, «Saodat asri» qissalaridan, hadislardan so'zlab, bola ko'nglini tog' qildi. Yaxshi muomala, shirin muloqot ham mo'jizalarga qodir ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, savlatidan ot hurkadigan professorlar qo'lidan kelmagani ishini ana shu ko'rinishi oddiy, muomalasi sodda, xoksor Alijon domla bajara oldi.

Hozir Komronbek beshga qadam qo'ydii, tengdoshlari qatori to'p tepib, dunyo lazzatlaridan bahra olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Har gal oynayi jahonda Alijon Zohidovichni ko'rib qolsa, yoki kitoblarini varaqlasa farishta-do'xtirim, deb shodlanadi.

Har yili noyabrning ikkinchi yakshanbasi O'zbekiston shifokorlarining kasb bayrami sifatida nishonlanadi. Xalqimizning u kabi bag'rikeng, odil, oqil, qo'li yengil do'xtirlari ko'payaversin, Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi va akademiya rektori bu kabi ilmi daryo insonlarni tegishli raq'batlantirsin deb tilak bildiramiz.

**Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani,
Chuvilloq qishlog'idan
Gulsum NAZAROVA**

OLIIY QADRIYATIMIZ VA IFTIXORIMIZ...

Taxminiy hisoblarga qaraganda, dunyoda uch mingdan ortiq til bor. Til – elning ruhi, til bo'lmasa, el ham yo'q.

Albatta, o'zbek tili o'zbeklar uchun milliy iftixordir. Chunki, bu tilda buyuk ajdodlarimiz qalam tebratishgan, o'zbek tilini ulug'lab, kelgusi avlodlarga zahmatli ijod mahsuli bo'lmish bebaho adabiy meros qoldirishgan. Ana shunday buyuk merosimiz asosini o'n birinchi asrda bobokalonimiz Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" nomli tilshunoslikka bag'ishlagan asari tashkil qilgan bo'lsa, o'n uchinchi asrda yashab ijod qilgan Shamsiddin Muhammad bin Qays Roziy esa tilshunoslik shevalariga bag'ishlangan turkcha lug'at kitobini tuzgandi. 15 asrda yashab, ijod qilgan g'azal mulkingning sultoni hazrat Alisher Navoiy esa o'zining beqiyos ijodi bilan tilimiz mavqeini behad yuksaklikka ko'targan edi. U ona tilimizni shunday ta'riflagandi: "Tilimiz o'n sakkiz ming olamdan boyroq

bo'lgan shunday bir xazina-ki, dur-u gavhari (so'zlari) osmon yoritgichlaridan ham porloqroq, shunday bir gulzorki, har bir guli chaman lolalardan go'zalroq".

Tilning rivojlanishi jamiyat hayoti, taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq va undagi o'zgarishlar albatta tilda ham o'z aksini ifoda etadi. Shu bois 1989 yilning 21 oktabr kuni ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi –Mustaqillik sari qo'yilgan ilk qadamlardan biri edi. Bu Qonun milliy-ma'naviy tiklanishning ustuvor yutuqlaridan biridir. 1995 yilning 21 dekabr kuni ushbu Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahrirda qabul qilinishi o'zbek tilining yanada boyishi va rivojlanishi uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratib berdi. Til haqida qabul qilingan Qonunning darajasi, saviyasiga qarab, xalqning siyosiy ongi, mil-

liy kamolotini, ma'naviy darajasini bilish va anglash mumkin. Mazkur qonunlar ona tilimizning imkoniyatlarini, kuch-qudratini oshirdi, millatimizni yanada jipslashtirdi. O'z tilimizda erkin so'zlashadigan, anjumanlar, sessiyalar, yig'inlarni o'tkazadigan, ish yuritadigan bo'ldik.

Mana, 34 yildirki, Vatanimizda o'z tilimiz hukmronlik qilmoqda, yillar osha ardoqlanib, ulug'lanmoqda. Xalqimizning o'z tiliga, eliga bo'lgan cheksiz muhabbati, ijodkorlik qudrati til masalalarida milliylik nuqta nazaridan qarashida namoyon bo'ldi. Ayni paytda faqat ona tilimizni ulug'lab, boshqa tillarni o'rganishni e'tibordan chetda qoldiradigan bo'lsak, ko'zlagan maralarga yetish mushkul. Shu bois boshqa tillarni puxta o'rganishga davlatimizda keng imkoniyatlar ajratilib, yoshlari-

miz chet ellarda tahsil olishmoqda, mamlakatimiz jahon hamjamiyati sari yuz tutmoqda.

Mana bugun esa biz barkamol avlod oldida yorug' yuz bilan o'z ona tilimizni yanada boyitishni, uning o'rganilmagan qirralarini o'rganishni ma'naviy meros holida ularga topshirmoqdamiz. O'zlikni anglashning eng asosiy tomoni bu o'z ona tiliga bo'lgan e'tibordir. Tilini qadrlagan insonda milliy g'urur bo'ladi.

Doimo ona tilimiz qadri-qimmatini yanada yuksalib, asrlar osha mayoq singari ma'naviy yo'limizni portlatib tursin!

Zotan, shoir yozganidek:

*Bu tilning har so'zi onaday aziz,
Onaday muqaddas, onaday suyuq.
Farzandlari sevgan uchun shubhasiz
Bu til mangu yashaydi...*

**Shahnoza XODJANOVA,
2-son fakultet va hospital terapiya,
nefrologiya va gemodializ
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD**



O'ZBEKISTONDA ILK BOR ADAMED SMARTUP FAOLIYATI YO'LGA QO'YILDI

O'zbekistonda ilk bor ADAMED SmartUP faoliyati yo'lga qo'yildi. Adamed Foundation iqtidorli yoshlar kamolotini qo'llab-quvvatlash hamda aniq va tabiiy fanlarni ommalashtirishga xizmat qiluvchi flagman ta'lim dasturi hisoblanadi.



Polsha Respublikasi elchisi, shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasi prorektori, professor Shuhrat Baymurov, Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litsey direktori Alisher G'aniyev, tashkilotning O'zbekiston bo'yicha menejeri Dinara Ibadulayeva, Polshadagi ADAMED bosh qarorgohi menejeri Anjey Bober, Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litsey professor-o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirokida birinchi o'zbek nashri ADAMED SmartUP Academy dasturining ochilishi bo'lib o'tdi.

Adamed jamg'armasining asosiy maqsadi ta'lim va bilimlarni rivojlantirish ayniqsa, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Shu maqsadda O'zbekistondagi hamkor bo'linmalar bilan birgalikda o'quvchi yoshlar, yosh fan ixlosmandlari uchun bepul shanbalik seminarlarini tashkil etilishni yo'lga qo'ydi.

ADAMED SmartUP Akademiyasining bu yilgi ilk faoliyatini Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda akademik litsey tomonidan tanlab olingan dasturda ishtirok etish uchun taklif qilingan akademik litseyning eng yaxshi 20 nafar o'quvchilari ishtirokida faoliyatni yo'lga qo'ydi.

ADAMED SmartUP Akademiyasi eng yaxshi tibbiyot oliygohlarining tajribali professor-o'qituvchilari tomonidan akademik litsey o'quvchilari ishtirokida amaliy mahorat darstlari va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishdan iboratdir. Mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsad professional va zamonaviy laboratoriyalarda ishlash, tajribalar o'tkazish tabiiy fanlardan bilim olish imkoniyatini beradi.

O'tkazilgan mashg'ulotlar yordamida akademik litsey o'quvchilariga o'zining bo'lajak ilmiy va kasbiy yo'lini belgilab olish imkonini yaratadi. Amaliy ko'nikmalar kelajakda o'z samarasini berishi shubhasizdir.

Adamed Pharma kompaniyasi dunyo hamjamiyatida innovatsiyalar rivojlanishining asosiy yetakchilaridan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda ham ko'p yillardan buyon bu loyihalarga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Adamed jamg'armasi orqali O'zbekiston yoshlari bilim olishi va uni kelajakda tatbiq etgan holda sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyoti rivojiga munosib hissa qo'shishiga ishonch bildirib hamkorlik aloqalari yillar davomida amalga oshirishiga ishonch bildiramiz.

Oltin kuz manzaralari



ILMIY ANJUMAN

Toshkent tibbiyot akademiyasi klinik farmakologiya kafedrasida tashabbusi bilan Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasidagi ilg'or oliy ta'lim muassasalari hamkorligida "Klinik fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning shakl va uslublari" mavzusida ilmiy anjuman o'tkazildi.

Klinik fanlarni o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar, talabalarda klinik mushohadani shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, simulyatsion o'qitishning ahamiyati anjuman ishtirokchilarining muhokama markazida bo'ldi.



XALQARO OLIMPIADA O'TKAZILDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida nevrologiya fani bo'yicha xalqaro olimpiada o'tkazildi.


Nevrologiya fanidan olimpiada 2017 yildan beri o'tkazib kelinadi. Bu yil oltinchi marta tashkil etildi. Bellashuvda yurtimizdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bilan birga chet el OTMLari ham ishtirok etdi. Bu olimpiada avvalgilaridan nimasi bilan farq qildi?

Ushbu olimpiada xalqaro maqomga ega. Boshqird davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Bundan tashqari, joriy yilda olimpiadada ishtirok etish uchun 125 nafardan ortiq nomzod ariza topshirgan bo'lib, bu avvalgi olimpiadalarga nisbatan rekord ko'rsatkichdir. Talabalarining o'quv muassasasi geografiyasi turlicha. Ular Rossiya va Markaziy Osiyo universitetlarida tahsil oladi.

Akademiyamizga kelsak, talabalarimizning nevrologiya faniga qiziqishi ortib borayotganini ko'ramiz. Ularning ko'pi faoliyatini nevropatologiya mutaxassisligi bilan bog'lashni xohlaydi. Buning uchun akademiyada barcha sharoitlar yaratilgan. 2010 yildan buyon kafedramiz qoshida "Yosh nevrologlar maktabi" faoliyat yuritmoqda.

O'tgan davrda mazkur to'garakka qatnagan ko'plab yigit-qizlar turli olimpiadalar, yosh olimlar anjumanlarida faol ishtirok etib, faxriy o'rinlarga sazovor bo'ldi. Shuningdek, ularning ko'pi magistratura, klinik ordinatura va doktoranturada o'qishni davom ettirib, doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Olimpiadamiz uch bosqichdan iborat bo'ldi. 1-bosqichda test sinovi o'tkazildi. 2-bosqichda



vaziyatli topshiriqlar va amaliy ko'nikmalar topshirig'i berildi. 3-bosqichda ishtirokchilar flesh savollarga javob topishdi.

TTAdan 20 ta talaba qatnashgan bo'lib, ulardan 1-o'rinni No-dirbek Nizomov (davolash fakulteti 6-kurs talabasi), 2-o'rinni Axliddin G'iyasov (davolash fakulteti 6-kurs talabasi) egalladi.

Olimpiadani tashkillashtirishda faol ishtiroklari ushuncha Boshqird davlat tibbiyot universiteti (BDTU) nevrologiya kafedrasida professori Leyla Axmadeevaga va BDTU rahbariyatiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Boshqird hamkasblari bilan hamkorlikni davom ettiramiz, deb umid qilaman.

Eng yuqori ball olgan talabalar 1-3-darajali diplomlar bilan taqdirlandi, qolganlarga sertifikatlar taqdim etildi. O'ylaymanki, bunday tadbirlar talabalarni bilimini sinab ko'rish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'z ustida ishlashga undaydi. Natijada jamiyat yuqori malakali nevropatolog shifokorlarga ega bo'ladi.

Shu o'rinda olimpiada g'oliblarini, qatnashchilarini, ularning ota-onalarini va ustozlarini tabriklab qolaman.

Marhamat YAKUBOVA,
Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida professori, "Yosh nevrologlar maktabi" to'garagi rahbari



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil oktabr)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son ichki kasalliklari propedevtikasi	assistent – 1,0
2.	Urologiya	assistent – 1,0
3.	Psixiatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	Odam anatomiyasi va OXTA	assistent – 1,0
Pediatrica, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistent – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

Besh muhim tashabbus olimpiadasi

ENG KUHLILAR QATORIGA OLIB CHIQUADIGAN YO'L

So'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport bilan shug'ullanadiganlarning sonini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan yoshlarning teran fikrlashi, ma'nan va ruhan sog'lomligi uning sog'lom turmush tarziga rioya qilishi uzoq umr ko'rishining garovidir.

Sport sohasini yanada takomillashtirish, mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni amalga qo'llash, yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashabbusi bilan boshlangan ezgu loyiha – "Besh muhim tashabbus olimpiadasi"ning amalga oshirilishi bugungi kunda yoshlarimizning oliy ta'lim muassasalari talabalarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun yanada yuqori sharoit yaratdi.

Aynan shu munosabat bilan Toshkent tibbiyot akademiyasida ham "Besh muhim tashabbus olimpiadasi"ning barcha sport turlari bo'yicha sport musobaqalariga start berildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida talabalar o'rtasida mini-futbol bo'yicha ommaviy sport musobaqalarida barcha fakultetlarimizdan 36 ta jamoa ishtirok etmoqda. Faol jamoalar safiga "Nihol", "Menejerlar", "Medstar", "Lochinlar", "Dinamo", "Humo" kabi guruhlarini kiritib o'tishimiz mumkin. Hozirgi vaqtga kelib mini-futbol musobaqasining yarim finalida Davolash-1 fakultetining "The best" va F.M.TB. BTM va OMH fakultetining "Menejerlar" o'rtasida bellashuv bo'lib o'tdi. Bo'lib o'tgan bellashuvda "Menejerlar" jamoasi finalga yo'l oldilar. Key-

ingi yana bir finalchi bo'lib "Lochin" jamoasi aniqlandi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasida sportning voleybol musobaqalari ham bo'lib o'tmoqda. Barcha fakultetlardan 15 ga yaqin jamoalar faol ishtirok etmoqda. Yuqori darajada o'ynayotgan voleybol guruhlariga "Shifokorlar", "Legant", "Bunyodkor", "Devil", "Gambit" "Hushyorlar" va "Stomatologlar" kabi jamoalarni kiritib o'tishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan Toshkent tibbiyot akademiyasida sportning stol tennis, talabalarining aqliy salohiyatini yuksaltiruvchi shaxmat musobaqalari ham bo'lib o'tmoqda. Musobaqalar doirasida talabalar o'z imkoniyatlarini sinab ko'rmoqdalar.

Yuqoridagi targ'ibot-tashviqot ishlarini, talabalarining sport musobaqalarda faol ishtiroklarini inobatga olib, Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati tomonidan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida faol ishtirok etgan, yakuniy natijalariga ko'ra faxrli 1, 2 va 3 o'rinni olgan jamoalar a'zolariga kubok, sertifikat, esdalik sovg'alar bilan taqdirlanish nazarda tutilgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasida besh tashabbus doirasida o'tkaziladigan tadbirlar davom etmoqda. Barcha ishtirokchilarga omad tilab qolamiz.

Z.FAYZIYEV,

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi

MUASSIS:
TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI

MUHARRIR
TURDIQUL
BOBOMURATOV

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abdugodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov